

“Kelishilgan”

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasii  
huzuridagi Davlat test markazi  
direktor o‘rinbosari

S. Radjabov

2021 yil

“29” *NOYABR*

“Tasdiqlayman”

Xorazm viloyati hokimligi  
“Yagona buyurtmachi xizmati” IK  
Bosh muhandisi

B. Sapayev

2021 yil

“29” *NOYABR*

Xorazm viloyati, Urganch tumani, “Yuqorido‘rman” qishlog‘idagi Davlat test markazining Xorazm viloyatida test sinovlarini o‘tkazish uchun mo‘ljallangan katta sig‘imli binolarning qurilishi”

## TEXNIK TOPSHIRIQ

### Binolar qurilish ishlarining asosiy parametrlari

“Davlat test markazining Xorazm viloyatida test sinovlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan katta sig‘imli binoning qurilishi” obyektii bo‘yicha asosiy qurilish - montaj ishlarida quyidagilar ko‘zda tutilishi kerak.

Zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanish zarurligi hisobga olinsin.

Quyidagi binolar va inshootlar qurilishini DTM faoliyatini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari budjet hisobidan moliyalashtirish rejalashtirilgan.

### 1. Asosiy bino (test o‘tkazish zali (pavilyon) va binoning ma‘muriy qismidan iborat):

O‘rnatilgan tartib bo‘yicha ekspertizadan o‘tgan Davlat test markazining Buxoro, Namangan, Samarqand, Andijon, Sirdaryo viloyatlari bo‘limlarida ko‘p marotaba qo‘llanilayotgan loyihalardan hududning tuproq, seysmik, shamol va qor yuklamalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta foydalanish tavsiya etiladi.

Binolar to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda, tarxda 114x30m gabarit o‘lchamlarga ega, jumladan, **test o‘tkazish zali** – 96x30m bir qavatli, qavat balandligi konstruksiya ostigacha bo‘lgan masofa 7m, yuk ko‘taruvchi konstruksiya – po‘latli rama;

**ma‘muriy bino** - 18x30m - 2 qavatli, 1-qavat balandligi poldan orayopma konstruksiyasi ostigacha 3,4 m, 2-qavat balandligi poldan tomyopma konstruksiyasi ostigacha 3 m. ko‘p oraliqli, 2 qavatli, seysmik ta‘sirni qabul qiluvchi armosetkali g‘ishtli to‘ldiruvchili, bo‘ylama va ko‘ndalang yo‘nalishlarda ishlovchi quyma temir-beton ramali konstruksiya, orayopma va tomyopma yig‘ma temir-beton ko‘p bo‘shliqli plita, tomtoshama osti - po‘lat konstruksiya ustidan, pardevorlar – minvata to‘ldirilgan konstruksiya bo‘ylab 2 qatlamli gipsokarton plitalari.

**Ma‘muriy binoning** 1 - qavatida quyidagi xonalarni loyihalashtirish:

- majlislar xonasi ( 75 m<sup>2</sup>);
- tibbiy yordam berish maskani (16 m<sup>2</sup>);
- rahbar xonasi qabulxona bilan (34+18 m<sup>2</sup>);
- xodimlar xonalari (3 ta 18 m<sup>2</sup>);
- kafeteriy idish-yuvish xonasi bilan (72 m<sup>2</sup>);
- hojatxonalar (KMKga ko‘ra);
- CCTV kuzatuv, elektrik, ABP, server va boshka xonalar texnik shartlarga ko‘ra.

2-qavatida quyidagi xonalarni loyihalashtirish:

- kompyuter zallari (2 ta 60m<sup>2</sup>);
- lingofon xonalari (2 ta 60m<sup>2</sup>);

- xodimlar xonalari (5 ta 18 va 35 m<sup>2</sup>);
- zal (43 m<sup>2</sup>)

Evakuatsiya zinapoyalari loyihada hisobga olinishi kerak.

Asosiy binoni tashqi o'rovchi konstruksiyalar – bazalt tolali to'ldiruvchili Z-Lock qulflash bog'lamasi asosli, qalinligi 100mmli osma gorizontal sendvich devor panellari, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchidan vitraj fasad tizimlari. Parapet va binoga kirish qoplamasini yonmaydigan alyumin kompozit panellardan bajarish.

Tomqoplama – metall progon bo'ylab bazalt tolali to'ldiruvchili Z-Lock qulflash bog'lamasi asosli qalinligi 100mmli tomyopma sendvich panellari.

Vitrajlar – alyumin profildan, 2 qatlamli oyna, tashqi oyna qalinligi 6 mmli va ichki oyna qalinligi 4 mmli oddiy oynadan.

Ma'muriy bino pardevorlari – mineral jun to'ldirilgan konstruksiya bo'ylab 2 qatlamli gipsokarton plitalari, namlik yuzaga keladigan xonalarda namga chidamli gipsokarton plitalarini qo'llash.

Ma'muriy bino shifti – shpatlovka, so'ngra suvemulsiya bo'yoqlari bilan bo'yash.

Ma'muriy bino poli – mahalliy ishlab chiqaruvchidan keramik plitka, beton va laminat qoplamalari, hojatxonalar pollar va devorlar qoplamalari mahalliy ishlab chiqaruvchidan keramik plitkalar.

Test o'tkazish zali poli – beton pol, so'ngra beton yuzasini silliqlash va ko'chishga bardoshli yolkulrang buyoq bilan bo'yash.

Test binosining yon qismida o'qlar bo'yicha gabarit o'lchamlari 12x3.7m, poldan shiftgacha bo'lgan balandligi 2.7m bo'lgan nogironlar uchun mo'ljallangan xonasi bilan 10 kishiga mo'ljallangan hojatxona ko'zda tutilsin.

Bino bo'ylab mahalliy ishlab chiqaruvchidan 2 qavatli vitraj tizimidan foydalanilsin.

Ichki pardoqlash ishlarida imkoniyatlaridan kelib chiqib mahalliy ishlab chiqaruvchining materiallaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Loyihalashda test sinovlarini "online" tizimga o'tish imkoniyatini ta'minlash uchun binoni to'la kompyuterlashtirishni nazarda tutish zarur.

Ichki pardoqlash ishlari:

gipsokarton plita qoplamali devorlar choklarini yopish, so'ngra suvemulsiyali bo'yoq bilan bo'yash, g'ishtli devorlar yuzalarini suvoq qilish va tekislash, so'ngra suvemulsiyali bo'yoq bilan bo'yash;

shift osma, gipsokarton plitalari choklarini yopish, so'ngra suvemulsiyali bo'yoqlari bilan bo'yash.

Test sinovlari o'tkaziladigan bino devorlari va shiftini hamda bino karkasining po'lat konstruksiyalariga ochiq holatda o'rnatilgan havo kanallari, quvurlar va loyihadagi muhandislik tarmoqlari va jihozlarini bir xil rangli va yorqin rangga bo'yash.

#### **Muhandislik uskunalari:**

binoni havo tortish, tozalash, isitish, shamollatish, konditsioner tizimlari bilan ta'minlash lozim; binoning muhandislik ta'minoti uchun zamonaviy jihozlar va uskunalaridan foydalanish zarur; konditsioner tizimlarini tanlashda buyurtmachi bilan kelishish kerak.

#### **Suv ta'minoti va kanalizatsiya:**

binoda sovuq, ichimlik va yong'inga qarshi suv, issiq suv tizimi ta'minlanishi lozim; hojatxonalarini va sanitariya xonalarni kanalizatsiya tizimi bilan ta'minlash.

**Elektr ta'minoti:**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 20-oktabrdagi 161-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 oktabrdagi PQ-3981 sonli qarori ijrosi bo'yicha o'rnatilgan tartibda elektr uskunalarni o'rnatish;

barcha xonalarni yoritish LED panellari tomonidan amalga oshirilishi, taqsimlash shitlari va barcha xonalarda favqulodda yoritish ta'minlanishi kerak.

**Aloqa va signalizatsiya:**

yong'in xavfsizligi talablari hamda ShNQ 2.01.02-04 talablariga asosan bajarilsin. Binoning barcha bo'linmalari yong'in va qo'riqlash signalizatsiyasi bilan jihozlangan bo'lishi kerak, terminal (masofadan boshqarish pulti) signalizatsiya moslamasining qo'riqlash bo'linmasiga chiqishi lozim; bino CCTV kuzatuv hamda telefon aloqa tizimlari bilan ta'minlanishi kerak.

**Kompyuterlashtirish:**

binoda test sinovlarini "online" tizimga o'tkazish imkoniyatini ta'minlash uchun binoni to'la kompyuter tarmoqlari va tegishli jihozlar bilan ta'minlash.

**2. Nazorat kirish punkti:**

1 qavatli, to'g'ri to'rtburchak shaklda, tarhda o'qlar bo'yicha 12x6m o'lchamdagi bino hamda yuk ko'taruvchi qismi metallokonstruktiviyali 8.6x2m o'lchamdagi soyabondan tashkil topgan. Parapet va soyabon qoplamasi yonmaydigan alyumin kompozit panellardan qoplansin.

qavat balandligi 3.4m;

konstruksiya sxemasi-karkasli;

poydevor – quyma temir-beton

devor-qorishmali pishiq g'ishtli, qalinligi 380 mm

pardevorlar - qorishmali pishiq g'ishtli, qalinligi 120 mmdan.

tomyopma - metall ferma va progon boylab profnastil;

pol - mahalliy ishlab chiqarilgan keramik plitkalaridan;

vitrajlar - oyna qalinligi 10 mm.

Tashqi pardoqlash ishlari:

sokol - mahalliy ishlab chiqaruvchilardan keramogranit plitkalaridan;

tashqi devor - g'isht ustini tekislash yaxshilangan suvog'i bilan, so'ngra "suyuq travertin" fasad bo'yoq bilan bo'yash;

tashqi zina - beton, mahalliy ishlab chiqaruvchidan keramogranit plitka bilan qoplash;

parapet va soyabon qoplamasi - yonmaydigan alyumin kompozit panellardan.

Ichki pardoqlash ishlari: shift-osma shift, mineral junli plita issiq saqlovchi izolyatsiya bilan to'ldirilgan karkas gipsokarton plitalari, so'ngra suvemulsiya bo'yoq bilan bo'yash;

devorlar - yuqori sifatli suvoq, so'ngra suvemulsiya bo'yoq bilan buyash;

pol - mahalliy ishlab chiqaruvchidan keramik plitkalaridan qoplama;

**Kirishlarda turniketlar o'rnatilishini nazarda tutish zarur.**

**Muhandislik uskunalari:**

bino elektr ta'minoti, elektr jihozlari, avtomatik yong'in va xavfsizlik signalizatsiyalari, SSTM kuzatuv tizimlari bilan ta'minlanishi zarur;

binoda havo isitish, shamollatish tizimi (konditsionerlar) o'rnatilishini ta'minlash.

## **Quyidagi binolar va inshootlar qurilishini mahalliy budjet hisobidan moliyalashtirish rejalashtirilgan.**

### **1. Ota-onalar uchun kutish soyaboni:**

metall karkasdan tashkil topgan, tarhda o'qlar bo'yicha o'lchami 3x12m, poldan konstruksiya ostigacha balandligi 4.2 m;

poydevor - quyma temir-beton;

ustunlar - metall profil quvurdan;

tomyopma - metall ferma va bog'lamalar;

tom to'shama - nishabli qalinligi 0.5 mmli profnastildan;

pol - beton;

binoni elektr ta'minoti, elektr jihozlari bilan ta'minlash zarur.

### **2. Tashqi 10 ta o'rinli hojatxona:**

1 qavatli, to'g'rito'rtburchak shaklda, tarxda o'qlar bo'yicha 13x4.8m gabarit o'lchamda; balandligi poldan shiftgacha 3 m. Kabina ko'rinishdagi ayollar va erkaklar hojatxonasi hamda nogironlar uchun kabinadan iborat.

Konstruktiv sxemasi - kompleks konstruksiya;

poydevor - quyma temir-beton;

devorlar - qorishmali pishiq g'ishtli, qalinligi 380 mm;

pardevorlar - qorishmali pishiq g'ishtli, qalinligi 120 mm dan;

tomyopma - metall ferma va bog'lamalar;

issiqlik izolyatsiyasi - qalinligi 50 mm mineral jun KNAUFF turdagi;

tom to'shama - nishabli qalinligi 0.5 mm li profil qoplamadan;

pol - mahalliy ishlab chiqaruvchidan keramik plitkalardan qoplama;

oyna - 2 qatlamli AKFA alyumin profilidan;

eshiklar - AKFA alyumin profilidan.

Tashqi pardoiz ishlari:

sokol - mahalliy ishlab chiqaruvchilardan keramogranit plitkalardan yoki tabiiy toshlardan;

tashqi devor - yaxshilangan suvoq ishlari, so'ngra shpatlyovkalash va fasad bo'yoq bilan bo'yash;

tashqi zina - beton;

parapet qoplamasi - yonmaydigan alyumin kompozit panellardan.

Ichki pardoizlash ishlari:

shift - to'la tekislash, so'ngra suvemulsiya bo'yoqlari bilan bo'yash;

devorlar - yuqori sifatli tekislash, balandlik bo'yicha 1.5 mgacha mahalliy ishlab chiqarilgan keramik

plita qoplash, yuqori qismini suvemulsiyali bo'yoq bilan bo'yash;

pol - mahalliy ishlab chiqarilgan keramik plitalardan.

Muhandislik uskunalari:

binoni elektr ta'minoti, elektr jihozlari bilan ta'minlash;

binoni suv, issiq suv hamda kanalizatsiya tizimlari bilan ta'minlash;

bino elektr ta'minoti, elektr jihozlari, telefon aloqa, avtomatik yong'in va xavfsizlik signalizatsiyalari,

SSTM kuzatuv tizimlari bilan ta'minlanishi zarur;

binoda havo tortish, tozalash, isitish, shamollatish tizimlarni, uskuna va jihozlarning o'rnatilishini

ta'minlash.

### **3. Kafeteriy:**

1 qavatli, to'g'rito'rtburchak shaklda, tarhda o'qlar bo'yicha 8x24m gabarit o'lchamda.

Balandligi poldan shiftgacha 3 m.

Konstruktiv sxemasi - kompleks konstruksiya;

poydevor - quyma temir - beton;

devor - qorishmali pishiq g'ishtli, qalinligi 380 mm;

pardevorlar - qorishmali pishiq g'ishtli, qalinligi 120 mmdan;

tomyopma - metall ferma va bog'lamalar;

issiqlik izolyatsiyasi - qalinligi 50 mm mineral junli KNAUFF turdagi plitalar

Tashqi pardoiz ishlari:

sokol - mahalliy ishlab chiqaruvchilardan keramogranit plitkalardan yoki tabiiy toshlardan;

tashqi zina – beton;  
parapet qoplamasi – yonmaydigan alyumin kompozit panellardan.  
Ichki pardoqlash ishlari;

shift - osma shift, minplita issiq saqlovchi izolyatsiya bilan to'ldirilgan karkas bo'ylab gipsokarton plitalari, so'ngra suvemulsiya bo'yoq bilan bo'yash;  
pol - zamonaviy sifatli keramik plitkalaridan.

Muhandislik uskunalari:

binoni suv, issiq suv hamda kanalizatsiya tizimlari bilan ta'minlash;

binoni elektr ta'minoti, elektr jihozlari tizimlari bilan ta'minlash zarur;

binoda havo tortish, tozalash, isitish, shamollatish tizimlarni, uskuna va jihozlarning o'rnatilishini ta'minlash.

#### **4. Hududning atrofini metall panjara bilan to'sish:**

panjara temir profil quvurlardan ishlanadi, balandligi ustigacha 2.5 m dan kam emas, ichida 2 darvoza mavjud.

#### **5. Nasos stansiyasi bilan kamera:**

Yong'in xavfsizligi talablariga muvofiq nasos stansiyasi bo'lgan kamera o'lchamlari 3.8x4.3 m va chuqurligi 2.6 m;

poydevor, devor, topyopma - quyma temir-betondan;

yerdan chiqib ketgan tomonlari tuproq bilan tekislanadi.

#### **6. Transformator:**

Texnik shartlarga muvofiq, iste'mol qilish quvvatining zaruriyati asosida, zaxira liniyani hisobga olgani bilan, transformatorlar va AVR lar bilan ta'minlanishi zarur.

#### **7. Tashqi injener tarmoqlari:**

suv, oqava suv (KMK 2.04.02-19, KMK 2.04.03-97), gaz, elektr, telefon tarmoqlari APT2, tegishli, KMK va texnik shartlar asosida ta'minlanadi.

#### **8. Obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish:**

KMK 3.01.05-99 asosida, hududning yer va iqlimiy sharoitlarini inobatga olgan holda ta'minlanishi zarur

Avtoturargoh hamda sug'orish uchun artezian qudug'ini nazarda tutish zarur.

**Izoh: ushbu 1-8 binolar va inshootlarning qurilishi mahalliy byudjet hisobidan moliyalashtirishi rejalashtirilayotgani sababli tarkibi va soni o'zgarishi mumkin.**

Ijrochi:



R.Nizamov

2021-yil 22-noyabr